

YO'LOVCHI TASHISH BILAN SHUG'ULLANUVCHI TADBIRKORLIK FAOLIYATINING NAZORATI

To'raboyev Holmurod Rustamjon o'g'li- katta o'qituvchi,

Nabiyev Shaxbozbek Shukurullo o'g'li- talaba.


Andijon mashinasozlik instituti

Tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati)- qonun hujjatlariga muvofiq daromad (foyda) olishga qaratilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) yo'li bilan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida amalga oshiriladigan tashabbuskor faoliyatdir [1-3]. Bugungi kunda rivojlanib borayotgan respublikamizda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga keng yo'l ochib berilmoqda. Bu esa respublikamida iqtisodiyotni rivojlantirishda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan ishlar tadbirkorlar orqali amalga oshirilayotganligi yaqqol misolidir. Tadbirkorlik faoliyati bir necha faoliyat turi bilan cheklanib qolmaganligi esa uning bugungi kundagi jozibadorligini oshirmoqda. Barcha faoliyatlar singari yuk va yo'lovchi tashishda ham tadbirkorlik faoliyati kundan kunga rivojlanib bormoqda. Albatta davlat yo'lovchi tashishda birgina shahar hududidagi jamoat transportini emas balki shahar atrofidagi jamoat transportlar tarmog'ida tadbirkorlarning ko'rgan iqtisodiy ziyonlarini normativ-huquqiy xujjatlar asosida qoplab beradi.

Bu esa o'z navbatida respublikamiz hududlarida jamoat transporti tarmog'ini rivojlantirish qishloqni- tuman markazi bilan, tuman markazi- viloyat markazi bilan bog'lovchi yo'nalishlarda jamoat transporti ustuvorligini oshishiga olib kelmoqda. Lekin hududlarda sifatli transport xizmati ko'rsatishda raqobat muhitining mavjudligi tariflarni jozibadorligi jamoat transportini ustuvorligiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etuvchi omildir. Chunki bugungi kundagi bozor iqtisodiyoti sharoitida transportlar harakati jadalligi yuqori ekanligi, sifatli hamda arzon transport xizmati doimo ham mavjud emasligi yo'lovchi transportlarida nazoratni kuchaytirishni taqazo etmoqda [4-7]. Bu esa

yo'lovchilar tashish tizimida umumiy nazorat tizimini joriy etish orqali barcha transportlar tarmog'ini kuzatish kamchiliklarni aniqlash yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni oldindan bashorat qilish metodlarini joriy etishni taqazo etadi.

Yo'lovchilar oqimi Andijon viloyatida yildan-yilga o'sib borish sur'ati 1-rasmga asosan keltirilib o'tilgan. 2021-2024 (yanvar-sentabr) yillarda yo'lovchi yo'lovchi aylanmasi diagrammasi [8,9].



1-rasm. Andijon viloyatidagi yo'lovchi aylanmasi

Yildan yilga yo'lovchilar oqimining o'zgarishi eng kamida 3 %ni tashkil etgan. Bu esa o'z navbatida mavjud ko'rsatilayotgan transport xizmatini sifatli darajada amalga oshirish uchun asos bo'lishi belgilangan [9-13].

Ho'sh bugungi kunda viloyatda yo'lovchi tashish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik faoliyatini nazorat qilish nima uchun muhim. Birinchidan sifatli transport xizmatini ko'rsatish, ikkinchidan yo'nalishlarda raqobat muhitini joriy etish orqali arzon transport vositalari qatnovini joriy qilish, uchinchidan yo'nalishlardagi tender bitimi asosidagi majburiyatlarni ikki tomonlama bajarilishini nazorat qilishdir. Yo'nalishlardagi yo'lovchi tashish transportlaridagi asosiy vazifa ishning muntazamligi va eng muhim sifat ko'rsatkichlarining bajarilishiga dispetcherlik xizmati javob berishidir. Tahlillar

shuni ko'rsatadiki, avtobuslarning yo'nalishda qatnovi muntazamligini oshirish tashilayotgan yo'lovchilar umumiy hajmining oshishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Harakat tarkibining muntazam harakatlanishi ustidan dispetcherlik xizmatining qat'iy nazorati yo'lovchilarning vaqtini yo'qotishiga va buning natijasida xizmat ko'rsatish sifatiga bevosita ta'sir qilishidir [14-18]. Yo'lovchi tashishning ahamiyati aholining harakatchanligi va aholining yashash joyining joylashishiga bog'liq. Narxlar va transport tariflari dinamikasiga nazar tashlasak, ular iqtisodiy o'sish tufayli qanday oshib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Zamonaviy sharoitda yo'lovchi tashish sifati muammosi har qanday aholi punkti uchun dolzarbdir. Bunga erishish uchun jamoat transporti zamonaviy yo'lovchilarning o'zgaruvchan ehtiyojlarini qondirishi va yangilangan jamoat transporti tarmoqlarini joriy etish oraqi amalga oshirish mumkin [19-23]. Davlat tomonidan yo'lovchi tashish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik faoliyatini nazorat qilishda quyidagi: litsenziyalash va ruxsatnomalar, texnik ko'rik va xavfsizlikni ta'minlash, davlat inspeksiyasi va tekshiruvlar, tariflar va narxlarni nazorat qilish, haydovchilarning malakasini oshirish va sertifikatsiyalash, ijtimoiy so'rov va shikoyatlar bilan ishlash, elektron nazorat va monitoring tizimlari, sertifikatlash va sifat standartlariga rioya qilish, jarimalar va iqtisodiy choralar orali to'g'ridan to'g'riboshqaruvni amalga oshiradi. Andijon viloyatida 275 ta yo'nalishlar tarmog'i mavjud bo'lib tender platformasida 253 ta yo'nalishlar tarmog'i tender shartnomalari uchun joylashtirilgan. Shundan 34 ta avtobus yo'nalishi (M3 toifasidagi), 10 ta mikroavtobus yo'nalishi (M2 toifasidagi), 209 ta yengil avtomobil (M1 toifasidagi) yo'nalishlaridan iborat [24-27]. Keltirilgan yo'nalishlar tarmog'ining 1,5 % markazlashgan dispetcherlik nazorati asosida faoliyat olib boradi. Bu esa qolgan 98,5 % yo'nalishlar tarmog'ini nazorat qilishning imkoni yo'q ekanligini anglatadi. Shunga asosan bugungi kunda barcha yo'nalishlarda tashuvchilarning tender kontrakti asosida faoliyat olib borayotganligini aniqlashning imkoni mavjud emas. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etishda tenderga qayta qo'yilayotgan yo'nalishlar tarmog'ida GPS yoki GLONASS geo axborot tizimlarini orqali faoliyat olib borishni majburiy etish zarur. Ushbu tizimlarni Transport vazirligining hududiy

bo'linmalaridagi yo'lovchi tashishni monitoring qilish markazlari bilan bog'lash orqali barcha muammolarga yechim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rustamjon o'g, T. R. H. (2023). METHODOLOGY OF FACTORS AFFECTING THE PRIORITY OF PUBLIC TRANSPORT IN ANDIJAN CITY IN THE EXAMPLE OF BUS DIRECTION NUMBER 21. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2(11).
2. Toraboev, X. (2024). TWO OF BABUR SHAH STREET IN ANDIJAN CITY ANALYSIS OF THE MODERN BRIDGE CONNECTING THE PART SIGNIFICANCE. *Journal of science-innovative research in Uzbekistan*, 2(6), 231-237.
3. Turaboyev, K., & Mahmudjanov, B. (2023). CONDUCTIVITY ANALYSIS OF THE MODERN BRIDGE CONNECTING TWO PARTS OF BOBUR AVENUE IN ANDIJAN CITY. *Current approaches and new research in modern sciences*, 2(10), 103-106.
4. Nasirov Ikham Zakirovich- Ph.D., Gaffarov Mukhammadzokir Toshtemirovich , Doctoral Student. (2023). Consequences Of Complete And Undercombustion Of Fuel. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3597–3603. <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.448>.
5. Nasirov Ilxam Zakirovich, & Akromjonova Sayyoraxon Baxtiyor qizi. (2023). YO'L BOSHQARUVINI INTELLEKTUAL AXBOROT TIZIMLARI ASOSIDA AVTOMATLASHTIRISH . *Journal of New Century Innovations*, 21(4), 122–127. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/3070>
6. Gaffarov Maxammatzokir Toshtemirovich, & Nasirov Ilxam Zakirovich. (2023). YANGI O'LCHOVLARDA EVROPA XAVFSIZLIGI. EVROPA ITTIFOQIDA YASHIL KELISHUV ISTIQBOLLARI. *Scientific Impulse*, 2(15), 935–942. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/13051>
7. Murodjon o'g'li, E. B., & Farhod o'g'li, I. S. (2023). SHAHAR YO'LLARINI JIHOZLASHDA ME'YORIY TALABLARGA MOSLIGINI O'RGANISH VA TAVSIYALAR ISHLAB CHIQUISH. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 47-50.
8. Esonboyev Behzodbek Murodjon o'g'li. (2023). O'ZBEKISTONDA TRANSPORT SEKTORINING ZAMONAVIY XOLATI VA UNING RIVOJLANISH DARAJASI. *Scientific Impulse*, 2(15), 904–911. Retrieved from <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/13047>
9. Esonboyev Behzodbek Murodjon o'g'li, Valiyeva Mufazzalxon Kazimjanovna, & Yulbasova Navruzaxon Abduraxmonovna. (2023). Patentlash ma'lumotlarini tayyorlash va patetlashga izlash ishlarini olib borish . *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research* , 1(3), 243-248. <https://inno-world.uz/index.php/ojamr/article/view/105>
10. Насиров, И. З. (2023). ИНСОН ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ДАРАЖАЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(4), 118-121.
11. Насиров, И. З. (2023). КАФЕДРАДАГИ ИЛМИЙ ИЗЛАНИШЛАРНИ БАЖАРИШДА ТАЛАБАЛАРНИ МУСТАҚИЛ ИШЛАШИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ. *PEDAGOG*, 6(2), 299-302.
12. Nasirov , I. (2023). CONDUCTING LESSONS IN THE “MENTAL ATTACK” METHOD. *International Conference On Higer Education Teaching*, 1(1), 86-89. Retieved from <https://aidlix.comphp/aeticle/view/90>
13. Raximov Raxmatullo Rafuiqjon o'g'li, & Solimuhammadov Jamshidbek Sohibjon o'g'li. (2023). LOGISTIKA TIZIMING TRANSPORT TOSHQIL ETUVCHISI. *TA'LIMDAGI ZAMONAVIY MUAMMOLAR VA ULARNING ILMIY YECHLARI* , 7 (7), 27–33. <https://esiconf.com/index.php/mpe/article/view/546> dan olindi.
14. Raximov Raxmatullo Rafuiqjon o'g'li, & Solimuhammadov Jamshidbek Sohibjon o'g'li. (2023). TRANSPORTDA LOGISTIKA XARAJATLARINI VA TARIFLARINI

SHAKLLANTIRISH. *BUTUN DUNYO ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 2 (2), 106-114. <https://esiconf.com/index.php/TOSROWW/article/view/543> dan olindi

15. Rafuqjon, R., & Rahimov, O. L. (2022). Avtomobil Transportida Tashuv Ishlarini Amalga Oshirishda Harakat Xavfsizligini Ta'minlash Uslublarini Takomillashtirish Yo'llari. *Образование И Наука В Ххи Веке*, 750-754.

16. Шодмонов С. А., Ортиқов С. С., Abdiraxmonov R.A International jurnal for innovative Enjineering and Management Research Хиндистон Hyderabad 2021 THE RESULTS OF LOBORATORY STUDIES CONDUCTED TO DEVELOP THE TECHNOLOGIY OF RESTOROTION OF SHAFTS March-2021, Volume 10, Issue 03, Pages: 402-404. <https://ijiemr.org/downloads/Volume-10/ISSUE-3 3 0.33 ball>

17. Шодмонов С. А., G'ulomov F., 3 STEPS TO TRANSPORT DANGEROUS GOODS IN UZBEKISTAN Естественнаучный журнал «Точная наука» Россия 2021 06 декабря 2021 г. Pages: 14-16. www.t-nauka.ru

18. Shodmonov, S. A., & qizi Turg'unova, G. A. (2022). Railway Transport, its Specific Characteristics and Main Indicators. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 12, 61-66.

19. Насиров Ильхам Закирович. (2022). МУСТАХИЛ ИШЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ШАКЛЛАРИ. *Конференц-зона*, 327–332. Получено <http://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/867>

20. Саримсаков А.М., Хакимов М. ПРОЕКТИРОВАНИЕ СИСТЕМ ПОЖАРОТУШЕНИЯ, СКОРОСТНОГО ДВИЖЕНИЯ АВТОМОБИЛЕЙ СКОРОЙ ПОМОЩИ НА ПЕРЕКРЕСТКАХ // *Universum: технические науки : электрон. научн. журн.* 2022. 4(97). RL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/13416> (дата обращения: 19.12.2022)

21. Hakimov M.S. Recovery Of Fines From Drivers Of Foreign Vehicles. (2023). *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3589-359 <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.446>

22. Насиров Илхам Закирович. (2023). ИНСОН ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ДАРАЖАЛАРИ . *Journal of New Century Innovations*, 21(4), 118–121. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/3069>

23. Zakirovich, N. I. ., & Mahammadovna , S. I. . (2023). LEVELS OF DEVELOPMENT OF HUMAN ABILITIES. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(7), 341–344. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/5245>

24. Закирович, Н. И. ., Жалолиддин ўғли, А. С. ., & Тухтасиновна, К. Д. . (2023). ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОТХОДОВ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(7), 345–351. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/5247>

25. Nasirov I.Z. Intellektual transport tizimlari. Darslik. ISBN 978-9910-799-39-6. Andijon: Omadbek print number one, 2024- 227 b.

26. Nasirov I.Z. Transport vositalarining bort axborot tizimlari. Darslik. ISBN: 978-9910-08-049-4. Andijon: Omadbek print number one, 2024- 140 b.

27. Gaffarov Makhammatzokir Toshtemirovich , Nasirov Ilham Zakirovich , Sobirova Tursunoy Abdipatto kizi , Hakimov Mavlonbek Solijon ugli. (2023). Recovery Of Fines From Drivers Of Foreign Vehicles. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3589–3591. <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.446>.